

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH  
XUSUSIYATLAR

*Akramjonova Feruza Akramjonovna*  
*Namangan davlat pedagogika instituti*  
*Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim*  
*kafedrasi stajyor o'qituvchisi*  
*Abdulboqiyeva Zuhra No'monjon qizi*  
*Namangan davlat pedagogika instituti*  
*Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi*  
*MTM-BU-23-guruh 1-bosqich talabasi.*  
*+998883722705*

**Annotatsiya:** Bu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlari, psixik taraqqiyoti hamda bolalarning maktab ta'limi jarayoniga psixologik tayyorligi muammolari to'g'risida turli xil ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha yosh davri, psixik taraqqiyot, tafakkur, idrok, xotira, bilish jarayonlari, o'yin faoliyati, idrok, intellekt.

Asosan 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar organizmining o'sishi davom etadi. Bola tug'ilgandan maktabgacha bo'lgan davrda jismoniy va psixologik jihatdan juda tez o'sadi.

Aynan shu davrda bolalar kattalarning mehriga, ularning parvarishiga doimiy ravishda muhtoj bo'ladilar. Bolalarning sog'lom bo'lib voyaga yetishi aynan shu davrda to'g'ri g'amxo'rlik qilinishiga bog'liq bo'ladi.

Yosh davrlari psixologiyasining maqsadi bola ta'lim-tarbiyasi bilan ish olib boruvchi har bir shaxs inson psixik taraqqiyotida har bir yosh davrining muhim xususiyatlarini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganib, barkamol avlodni kamol toptirishda undan samarali foydalanish hisoblanadi..

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular atrofdagi odamlarning faoliyatiga, ularning predmetlarga munosabatiga qiziqadi, uzoq vaqt qiziqqan narsasini imkon qadar chuqurroq bilishga intiladi va o'zi qiziqqan mashg'uloti bilan shug'ullanishdan hech qachon zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarini o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

Maktabgacha yosh paytida bolalarda badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqa ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola musiqa orqali ashula aytishga, xotirada saqlab qolishga va musiqa ohangiga mos harakatlar qilishga o'rganadilar.

Bolalar bu davrda juda taqlidchan bo'ladilar. Ular kattalarning harakatlariga taqlid

qiladi,ulardan ko'p narsalarni o'rganadi.Masalan:ehtiyotkorlik bilan ovqatlanish,kiyimlarini to'g'ri va tekis taxlash,oyoq kiyimlarini to'g'ri qo'yish,o'yinchoqlarini yig'ishlikni bemalol o'rganadilar.

Ota-onalar doimiy ravishda bolalarining xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak.Bolaga tinch va to'g'ri muomala qilish kerak.

Ota-onalarning kayfiyati bolalarga osonlikcha yetkaziladi.Bolaning otasi yoki onasi tomonidan baland,g'azablangan qichqirig'i uni tez hayajonlantiradi.Natijada bola qo'rqadi,ko'z yoshlari paydo bo'ladi va bola injiq bo'lishni boshlaydi.

Hozirgi davrda bolalar rivojlanishining xususiyatlaridan biri bu rivojlanishning tezligi hisoblanadi.Hozirgi yosh bolalarning balog'atga yetish davri ham juda erta kuzatilmog'da.Hozirgi bolalarning deyarli yarmi telefon bilan band bo'lib qolgan.Telefonning barcha qurilmalarini tushinadi,undan foydalana oladi.Bu esa yosh bolalar ko'zlarining erta ko'rmay qolishi va turli xil ko'z va bosh kasalliklariga olib kelmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirjamlik hissi bilan ajralib turadilar.Ularning kichik sabablarga ko'ra ziddiyatlari yo'q.

Maqsadlarga bo'ysunish ushbu davrda shakllangan eng muhim shaxsiy mexanizm hisoblanadi.Maktabgacha yoshi-bu niyatlarning bo'ysunishi o'z-o'zidan paydo bo'ladigan davr bo'lib,keyinchalik izchillik bilan rivojlanib boradi.

Agar bola bir vaqtning o'zida bir nechta istakni talab qilsa,u uchun u istak deyarli hal qilinmagan va u qarorni qabul qilish qiyinroq.

Bolada nutq paydo bo'lishidan ancha oldin birinchi bor gapira boshlaganda u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini katta yoshdagi kishilar yordamida bilib oladi.

Masalan:ona bolasiga o'yinchoqni uzatganda,bola qo'lini cho'zib uni oladi.Uni ko'rib,idrok qilishi,eshitishi,tafakkuri shakllanib boradi.Aynan o'yinchoq nomi aytilganda,hissiy idrok bilan so'z o'rtasida o'zaro ta'sir sodir bo'ladi.

Masalan ona "quyonchani ber","quyonchani olib kel" deb bir necha bor aytsa,bola muayyan o'yinchoqning nomini yaxshi eslab qoladi.Aynan shu "quyoncha"degan so'z bolaning xayolida ma'lum bir buyum ekanligini hosil qiladi.

Mashhur rus fiziologi Sechenov bunday deb yozgan ekan:"Bola gapirishni o'rganib olgandan keyin unda tevarak-atrofdagi narsalarga qiziqish va ularni bilishga intilish oshib boradi,bu hol bolaning onasiga:nega stol yurmaydi-yu,quyosh esa oyoqsiz ham harakatlanaveradi,kechqurun u qayerga yashirinadi,nima uchun shamol g'uvullaydi?"-kabi savollar berishga sabab bo'ladi"

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish alohida rol o'ynaydi.Inson o'z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrlariga munosabat bildirish uchun ona tilidan foydalanadi.

Nutqni mukammal egallash bolaga hikoya,badiiy asar,so'zlovchining

tushuntirishlari orqali bilimlar hosil qilishga imkon beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ongli ravishda eslab qolish qobiliyati yaxshi shakllanadi.Ularning xotira hajmi ancha kengayadi.Ular bog'chada qanday o'yinlar o'ynaganliklari,qanday ovqat tanovvul qilganliklari,qanday she'r yodlaganliklarini otanalariga bemalol aytib bera oladilar.

Xayol,tafakkur qilish ijodiy faoliyat uchun zarurdir,shuning uchun uni bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Bog'cha yoshida bolalarda dastlab tasavvur xayoli bo'ladi.Tafakkurning rivojlanishi bilan xayol kengayib boradi.Bolalarda asosan tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish juda tez o'sadi.Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir.Kattalar bolalarning qiziquvchanligini,bilishga bo'lgan har qanday xohishini sezishlari va rag'batlantirib borishlari kerak.Rag'bat bolaning yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Avvalo,bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish kerak.Insonning aqliy qobiliyati aqlning ziyraklik,fahm-farosatlilik,tanqidiy ko'z bilan qarash,sinchkovlik,sermulohazalilik kabi sifatlari bilan ajralib turadi.

Tarbiyachi shuning uchun bolalarda aqliy sifatlarni rivojlantiruvchi faoliyatlarni tashkil qilib borishi kerak.Bolada ziyraklik xususiyatlarini o'stirish uchun tez javob qaytarishni talab etadigan o'yinlarni tashkil etib borish kerak.Bolalar tafakkurini,ichki dunyosini kengaytirish uchun ularga jumboqli masalalar berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolalarga axloqiy va estetik tarbiyani ham o'rgatish kerak.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga san'at,informatsion texnologiyalar,tabiat,mehnat,sport kabi sohalarni kiritishimiz mumkin.Masalan san'at estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi.San'at insonning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan vosita sifatidan insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan.

San'at o'zining estetik bisotini to'laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi.Estetik tarbiyani o'zida mujassamlashtirish natijasida bolalar bir xillikdan rang-baranglikka,qo'pollikdan-ixchamlikka,noqulaylikdan-qulaylikka tomon ajrata olish xususiyatlarini namoyon qila boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiyani o'rgatishdan oldin axloqiy tarbiyani o'rgatish lozim.Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari asosan bolalarda axloqiy his-tuyg'ular,tasavvurlar va hatti-harakatlarni shakllantirishdan iblat.

Hozirgi kunga kelib barcha maktabgacha tarbiya muassasalarida ham axloqiy tarbiya asosiy o'rinni egallaydi.Axloqiy tarbiya bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishiga,ularada madaniy xulq va munosabatlarini,shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan hisoblanadi.

Bolalarga axloqiy tarbiyani berish mobaynida yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi

tasavvurlarini e'tiborga olish, axloqiy xulq-atvor normalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Har bir bolaning his-tuyg'ulariga alohida e'tiborda bo'lish ma'suliyati talab qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bolalarga doimo bolalarcha munosabatda bo'lishimiz kerak. Chunki bolalarning ko'ngli nozik bo'ladi. Ularga ozgina qo'pol gapirib qo'ysak, ularning bizga bo'lgan munosabatlari yomon bo'lishi mumkin. Har bir qilayotgan ishlarini yaxshi gap bilan rag'batlantirib, bilmagan narsalarini o'rgatsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolaga qo'pol gapirish natijasida ularning bog'chaga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyachi so'ndirib qo'yishi mumkin. Natijada bola tarbiyachisidan qo'rqadigan bo'lib qoladi.

Shuning uchun tarbiyachilar bolalar ertalab bog'chaga kelgan paytlarida ularni noodatiy holda, muloyimlik bilan kutib olishlari kerak. Shunda bolalarning o'qituvchilariga bo'lgan munosabatlari keskin o'zgaradi. Natijada bola bog'chaga kelishdan hech qachon zerikmaydi. Aksincha, har kuni o'z xohishi bilan bog'chaga keladi. Bolalar uxlayotgan paytda ham ularning miyya faoliyatlari tinch bo'lishi uchun noodatiy usullar bilan uxlatish usullarini o'ylab topish kerak.

Bunda tarbiyachida kreativlik qobiliyatlari namoyon bo'lishi kerak. Doimo harakatchan, izlanuvchan bo'lgan tarbiyachi hech qachon ortda qolmaydi, doimo oldinda yuradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Высоцкий Л.С. Вопросы детской психологии. -М.:СПБ.1999.
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari (2018-yil 4-iyul).
4. Yusupova R. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" T. "O'qituvchi 1993" y.
5. B. X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent-2017.
6. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. O'qituvchi-1996.
7. I. J. Xasanboyev va boshqalar. Pedagogika tarixi va nazariyasi. Toshkent-2021.